

FARZAND SHAKLLANISHIDA OILANING PSIXOLOGIK O‘RNI

*Avalova Inobat Xolmatovna*

*Jizzax shahar 28-maktab psixologi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur mavzuda farzand shaxsining shakllanishida oilaning psixologik o‘rni, tarbiya uslublari va oilaviy muhitning ahamiyati yoritiladi. Oila bolaning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti bo‘lib, unda uning xarakteri, qadriyatlari va xulq-atvori shakllanadi. Maqolada ota-onaning ta’siri hamda sog‘lom psixologik muhitni yaratish yo‘llari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** oila, bola tarbiyasi, psixologik muhit, shaxs rivoji, ota-ona, ijtimoiylashuv, emotsional rivojlanish.

**KIRISH**

Farzand shaxsining shakllanishi eng avvalo oilada boshlanadi. Oila bolaning birinchi ijtimoiy muhiti bo‘lib, unda u hayotga, odamlar bilan munosabatga va o‘ziga bo‘lgan qarashlarni o‘zlashtiradi. Shu sababli oilaning psixologik muhiti bolaning kelajakdagi shaxs sifatida rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Oiladagi mehr, e’tibor va qo‘llab-quvvatlash bolaning emotsional barqarorligini ta’minlaydi. Mehribon va tushunuvchan ota-onalar farzandda o‘ziga ishonch, ijobiy “Men” obrazini shakllantiradi. Aksincha, doimiy tanqid, befarqlik yoki zo‘ravonlik bolaning ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tarbiya uslublari ham muhim ahamiyatga ega. Demokratik, ya’ni mehr va nazorat uyg‘unlashgan tarbiya eng samarali hisoblanadi. Haddan tashqari qattiqqo‘llik bolada qo‘rquv va tortinchoqlikni kuchaytirsa, ortiqcha erkinlik intizomsizlikka olib kelishi mumkin.

Bola ota-onani kuzatish orqali o‘rganadi. Ularning xulq-atvori, muomala madaniyati va muammolarni hal qilish uslubi farzand uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli ota-onaning shaxsiy namunasining roli beqiyosdir.

Oilada sog‘lom muloqot muhitini yaratish ham juda muhim. Farzandning fikrini tinglash, uni hurmat qilish va qo‘llab-quvvatlash orqali bola o‘zini qadrlangan his qiladi. Bu esa uning ijtimoiylashuv jarayonini osonlashtiradi.

Shuningdek, oiladagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ham bolaning rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Biroq eng muhim omil — bu psixologik muhit, ya’ni mehr, tushunish va qo‘llab-quvvatlashdir.

Oilaning psixologik ta’siri bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

Emotsional rivojlanish: Ota-ona bolaga mehr-muhabbat, qo‘llab-quvvatlash va xavfsizlik hissini beradi. Bu bolaning o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarishni

o'rganishiga yordam beradi.

**Ijtimoiy ko'nikmalar:** Bolalar oilada jamiyat qoidalarini, odob-axloqni va boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganadi. Oila bolaga ijtimoiy moslashuv va hamkorlik ko'nikmalarini beradi.

**Shaxsiy rivojlanish:** Ota-ona va oilaning doimiy qo'llab-quvvatlashi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi, mustaqilligi va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

**Tarbiya va xulq-atvor shakllanishi:** Oila bolaga axloqiy qadriyatlar, ijobiy xatti-harakatlar va odatlarni o'rgatadi. Bu bolaning kelajakdagi jamiyatdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

**Stressni kamaytirish va ruhiy barqarorlik:** Oiladagi ijobiy munosabatlar va mehr-muhabbat bolani stressdan himoya qiladi, uning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Ota-onaning faol ishtiroki, bolani tinglash, muloqot qilish, o'yin va birgalikdagi faoliyatlar bolalarning psixologik rivojlanishini yanada samarali qiladi. Shuningdek, ota-onalar bolaga ijtimoiy va emotsional qobiliyatlarni mustahkamlash orqali maktab va jamiyatga moslashuvini osonlashtiradi.

Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilgunicha javobgardir. Negaki, oila omili insonga butun umri davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy maqomlarni egallaydigan jamoa hisoblanadi.

Ma'lumki, dunyoga kelgan go'dakning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Aynan shu maskan quchog'ida bola ijtimoiy muhitga moslashib, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi. Shular asosida ijtimoiy hayotga kirib boradi. Farzand oilada kamol topar ekan, u oila a'zolarining o'zaro munosabatlaridan doimo ibrat oladi. Keyin bolalar bog'chasi, maktab va ko'cha kabi ijtimoiy muassasalar inson hayotiga kiradi. Shular zaminida u boshqa kishilarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini o'rganib, farqlay boshlaydi va ular bilan munosabatga kirishishi, muloqotda bo'lishining usul va shakllarini o'rganib boradi va bu tushunchalari uning o'smirlik va balog'at yillarida ham saqlanib qoladi.

Oilada olib boriladigan ijtimoiy ta'lim jarayoni ham ikkita asosiy yo'nalishda o'tadi. Bir tomondan, ijtimoiy tajribani egallash bolaning ota-onasi, aka-uka va opa-singillari bilan to'g'ridan-to'g'ri o'zaro munosabati jarayonida yuzaga keladi. Ikkinchi tomondan, ijtimoiylashuv boshqa oila a'zolarining bir-biri bilan ijtimoiy o'zaro ta'sirining xususiyatlarini kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Bolaga nisbatan ota-onalar xatti-harakatlarining to'rtta parametrlari o'rganilgan: nazorat, yetuklik talabi, aloqa, yaxshi niyat. *Nazorat:* ya'ni bolaning faoliyatiga ta'sir ko'rsatishga urinish. Bolaning ota-onalarning talablariga bo'ysunish darajasi aniqlash. *Yetuklikka talab:* Ota-onalar bolalarni aqliy qobiliyatlari chegarasida, yuqori ijtimoiy va hissiy darajada harakat qilishiga majburlash unga bosim o'tkazish. *Aloqa:* ota-onalar tomonidan boladan imtiyoz olish, uning fikrini yoki biror narsaga munosabatini

tushuntirish uchun e'tiqodlardan foydalanish. *Yaxshi niyat*: ota-onalar bolaga qanchalik qiziqish ko'rsatish ya'ni maqto'v, uning muvaffaqiyatlaridan xursandchilik, iliqlik, sevgi, g'amxo'rlik va unga mehr qo'yish kabilar.

Oilaning roli bolani jamiyatga bosqichma-bosqich kiritishdan iborat bo'lib, uning rivojlanishi insonning tabiatiga va u tug'ilgan mamlakat madaniyatiga mos keladi. Bolaga insoniyat to'plagan ijtimoiy vazifani, u tug'ilib o'sgan mamlakat madaniyatini, uning axloqiy me'yorlari va xalq urf-odatlarini o'rganish otaonalarning bevosita vazifasidir.

Har bir shaxs oilaning jamiyatdagi o'rni va funksiyalarini, qadr-qimmatini anglamasdan, Vatanning ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib Vatan tuyg'usini tom ma'noda his qila olmaydi. Aynan har bir inson, "Vatan", "Xalq" tushunchalarining mohiyatini dastlab ana shu maskanda o'zlashtiradilar.

Binobarin, oilaning o'zi Vatanning bir bo'lagidir. Oila sha'nini himoya qilish, uni saqlash to'g'risidagi qayg'urishning Vatanning sha'nini, el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg'ulari bilan uzviy bog'liq bo'lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning asosi bo'lishi lozim. Bu ish asosan har bir o'zbek oilasidagi tarbiya an'analari va ularni takomillashtirish, milliy qadriyatlarni turmush tarzining ajralmas bo'lagiga aylantirish, muloqot madaniyatining sharqona ko'rinishlari bilan zamonaviy shakllarini uyg'unlashtirish, mehnat tarbiyasi, uning farzandlar farovon turmush kechirishining muhim tamoyili sifatida qadrlanishiga erishishi orqali amalga oshirish mumkin.

Oilada tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun ota-onalar turli tarbiya vositalaridan foydalanishadi: bolani rag'batlantirishadi, jazolashadi, uning uchun namuna bo'lishga harakat qilishadi. Do'stona munosabatda bildirilgan maqto'v, befarq va sovuq ota-onalardan olingan maqto'vga qaraganda ta'sirliroqdir. Jazolash va taqiqlashga nisbatan maqto'vdan aql bilan foydalanish hisobiga bolani shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir qilish mumkin. Bolani boshqa yo'l bilan amalda o'zgartirib bo'lmaganida jazolashdan ham foydalanish mumkin. Agar jazolash uchun ehtiyoj tug'ilsa, uning tarbiyaviy ta'sirini oshirish uchun iloji boricha qilgan xatti-harakati uchun jazolashga intilish kerak. Jazolash adolatli, lekin juda shafqatsiz bo'lmasligi lozim. Juda qattiq jazolash bolada qo'rquv paydo qilishi mumkin. Bolaning qilgan xatosi unga yaxshilab tushuntirilsa, jazolash samarali bo'ladi. Ko'proq jazolanadigan, baqiriladigan bolalar, ota-onadan uzoqlashadi, emotsional befarq bo'lib qoladi hamda yuqori agressivlikni namoyon etadi.

Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilayotgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlarbolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faillik, mas'ullik,

e'tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi. Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to'grisidagi ma'lumotlarni berib borish, o'z navbatida huquqlaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi. Bolalarning ota-onalari bilan o'zaro munosabati ularni mashq qilish va ijtimoiy ko'nikmalarni takomillashtirishga imkon beradi, keyinchalik bu tengdoshlari bilan muloqotda juda foydali bo'ladi.

Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta'sirida birinchidan, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi. O'ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi. Ikkinchidan, har tomonlama yetuk, barkamol, aqlli, sog' va salomat shaxs bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga o'ziga o'xshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo'lish, muomalada axloq-odob me'yorlariga bo'ysunishga o'rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi

Har birimizning jamiyatdagi o'rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lgani, jamiyatga qo'shib yashashimizning psixologik mexanizmlari jarayoni psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb ataladi. Ijtimoiylashuv- bu shaxs o'z hayoti davomida o'zi tegishli bo'lgan jamiyatning ijtimoiy me'yorlari va madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuvning maqsadi- bola egallashi kerak bo'lgan shaxsiy xususiyatlar va u o'rganishi kerak bo'lgan ijtimoiy xatti-harakatlardir. Ijtimoiylashuv ob'ekti- bu shaxs. Shaxs – muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanish-oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ta'minlovchi murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni birbiridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Shunday qilib, inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Shaxsning ma'naviy sifatlariga ega bo'lishi, unda

ma'naviy bilimlarnin egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga, turli ko'rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me'yorlarga og'ishmay rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, o'z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so'z va faoliyat birligini ta'minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat na'munasini ko'rsatadi.

Shaxs shakllanishiga ta'sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas bo'lagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga o'ziga xos xususiyatlarni ham akslantiradiki, bunday hislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar to'qnashuvidan iborat ijtimoiy munasabatlardan toliqqan inson organizmining ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mo'tadil iqlimni hosil qila oladi. Bu tuyg'u xalqimiz ruhiyatidagi o'ziga xos xususiyatlaridan biridi. Bugungi kunda jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatning asosiy maqsadlaridan biri-barkamol avlodni tarbiyalashdir. O'zbekiston Respublikasi 1 Prezidenti I.A. Karimov va hukumatimiz oilani jamiyat negizi sifatida bilib, unga nisbatan g'amxo'rlik qilmoqda, uning moddiy-maishiy ravnaqi uchun butun imkoniyatlarni ishga solmoqda. Jumladan, yurtboshimiz oilaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risida shunday deydi: «Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi».

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, oila farzand shaxsining shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Sog'lom psixologik muhit, to'g'ri tarbiya va ijobiy munosabatlar orqali barkamol va mustaqil shaxsni tarbiyalash mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sulstonova, D. Idrok va tafakkurning pedagogik rivojlanishi. Farg'ona: Ilm, 2020.
2. Zokirova, M. Psixologik yondashuvlar va o'quv jarayoni. Samarqand: Ma'naviyat, 2019.
3. Karimov, O. O'quvchilarda ijtimoiy va emotsional ko'nikmalar. Toshkent: Fan va Texnologiya, 2021.
4. Rustamova, N. Giperaktiv bolalar bilan ishlash metodikasi. Toshkent: Pedagogika, 2020.
5. Qodirov, F. Stressni boshqarish va psixologik mashg'ulotlar. Toshkent: Ilm-fan, 2018
6. Ziyonet